

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

AXBOROTNI XIMOYALASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

Muxtorov Farrux Muxammadovich

fmm1980@rambler.ru

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali, Telekommunikatsiya texnologiyalari va kasbiy ta’lim fakulteti decani Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali, magistranti

Umarov Abdumuxtor Maxammad o‘g‘li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg‘ona filiali, magistranti

Abdumuxtorfdu94@gmail.com

Ro‘zaliyev Abdumalikjon Vahobjon o‘g‘li

mrabdumalik1998@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada axborotlarni himoya qilish huquqiy usullari, tashkiliy usullari va himoya qilish vositalari haqida gap ketadi. Usul axborot xavfsizligini boshqarish loyihalari jarayonida yo‘l qo‘yilgan keng tarqalgan xatolarni minimallashtirish uchun mo‘ljallangan.

KALIT SO‘ZLAR: Axborot xavfsizligi xavfini tahlil qilish, himoyalash, huquqiy usullari, tashkiliy usullari, himoya qilish.

ABSTRACT

The protection of this information refers to legal methods, organizational methods and safeguards. The method is designed to minimize the wide range of errors made in the process of information management.

Keywords: Information security risk analysis, protection, legal methods, organizational methods, protection.

KIRISH

XXI asr axborot asri bo‘lib, axborot ahamiyati va qimmatini oshib bormoqda. Bunday sharoitda uni qonuniy himoyalash ham dolzarb masalaga aylandi. Axborotni himoyalash deganda quyidagilar tushuniladi:



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

1. Axborot butunligi va ishonchliligini ta'minlash; 2. Axborotni saqlash jarayonida elementlarining almashtirilishiga yo'l qo'yilmaslik; 3. Maxsus ruhsatga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan axborotlardan qisman yoki to'liq foydalanishning oldini olish, umuman olganda axborotni o'g'irlashga, o'zgartirishga yoki tizimni ishdan chiqarishga bo'lgan intilishlardan himoya qilish tushuniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Axborot xavfsizligini ta'minlashda quyidagi talablar qo'yiladi: 1. Konfidensiallik (mahfiylik); 2. Butunlik (axborotni axborot jarayonlari davomida uni beruhsat o'zgartirish yoki kuzatishga yo'l qo'yilmaslik holati); 3. Qobillik (axborotning unga nisbatan berilgan axborot jarayonlarini bajarishga yaroqlilik va tayyorlik xossasi). Kompyuter tizimlari va tarmoqlarida axborotni himoyalashning quyidagi usullari mavjud: 1. Tashkiliy; 2. Texnik-dasturiy; 3. Huquqiy; 4. Axborotni zahiralash va nusxalash; 5. Kriptografik.

Qonun hujjatlarida quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi: 1. Kompyuter jinoyatchiligi uchun jazolash me'yorlarini ishlab chiqish; 2. Dasturlovchilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish; 3. Axborotlashtirish sharoitlarida axborot sohasidagi huquq va erkinliklarni himoya qilish; 4. Axborot xavfsizligi bo'yicha xalqaro shartnomalarni qabul qilish va unga amal qilish me'yorlarini ishlab chiqish. Huquqiy vosita axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Uning asosini axborotni qayta ishlash va uzatish, ulardan foydalanish qoidalariga rioya qilishni ta'minlaydigan qonunlar tashkil etadi. Axborot xavfsizligini huquqiy ta'minlashning asosini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalari, Axborotlashtirish to'g'risidagi qonun, Elektron raqamli imzo to'g'risidagi, Elektron tijorat to'g'risidagi bir qator qonunlarda ko'zda tutilgan moddalar tashkil etadi.

Axborotlashtirish qoidalarini ijtimoiy xavfliligi axborot egasiga yirik miqdorda zarar etkazishdan iborat. Bundan tashqari axborotni to'plash, yig'ish, qayta ishlash, uzatish, undan foydalanish, shuningdek noqonuniy ravishda axborotga ega bo'lish tartibi buziladi.

NATIJARLAR

Axborotlashtirish qoidalarini buzish natijasida (masalan, axborot tizimidan ma'lumotlarni noqonuniy ravishda olish) mulk egasi o'z axborotiga ega bo'lish, undan foydalanish yoki uni tasarruf etish imkoniyatidan mahrum etiladi. Bundan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

axborotga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish sohasida amal qiladigan ijtimoiy munosabatlar mazkur jinoyatning ob'ekti ekanligi kelib chiqadi. Faqat axborot tizimlaridagi axborot jinoyatning predmeti bo'lishi mumkin. Davlat idoralari, huquqiy va jismoniy shaxslar faoliyatning mahsuli sifatida axborot moddiy yoki aqliy (intellektual) mulk ob'ekti bo'lishi mumkin. Axborot mulk ob'ekti sifatida ayrim hujjat yoki hujjatlar to'plami olinishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 174-moddasining 2-qismiga muvofiq kompyuter tizimlarida saqlanayotgan ma'lumotlar yoki dasturlarni o'zgartirish maqsadida tegishli ruxsatsiz kompyuter viruslari yoki dasturlarini ishlab chiqish va tarqatish, shuningdek, ruxsati bo'lmagan holda axborot tizimidan foydalanish ma'lumotlarning buzilishi, olib tashlanishi, yo'q qilib yuborilishi yoki bu tizimning ishdan chiqishiga sabab bo'lsa, eng kam ish haqining 100 baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilib uch oydan olti oygacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bundan tashqari Jinoyat kodeksida qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish (191- modda) uchun javobgarlik ko'zda tutilgan.

1993-yil 7-mayda qabul qilingan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun 2003-yil 11-dekabrda Oliy Majlisning sessiyasida qayta ko'rib chiqilgan va u 23 moddadan iborat. Bu qonunga ko'ra axborot resurslari va axborot tizimlarining texnika vositalarini sertifikatlashtirish, axborot tizimlarining tarmoqlararo bog'lanishini amalga oshirish, axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilish, xalqaro axborot tarmoqlaridagi ulanishni amalga oshirish, nizolarni hal etish, axborotlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

MUHOKAMA

. Muayyan tahdidni blokirovka qilish uchun ma'lum usullar va himoya vositalaridan foydalaniladi. Ulardan ba'zilari ma'lumotni bir vaqtning o'zida bir nechta tahdidlardan himoya qiladi. Usullar orasida har qanday himoya tizimining asosi bo'lgan universal usullar ham mavjud. Bu ixtiyoriy majburiyatlarni himoya qilish tizimini rasmiy qurish va undan foydalanish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan axborotni himoya qilishning huquqiy vositalari; bu bir nechta xavflarni bartaraf etish (teskari) uchun odatda qo'llaniladigan tashkiliy usullar; bu tashkiliy va texnik chora-



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

tadbirlarga asoslangan axborotni ko'pgina tahdidlardan himoya qilishning texnik usullari.

XULOSA

O'zbekistonda, MDH barcha davlatlaridagi kabi, yaqin vaqt-largacha kompyuter jinoyatchiliklari bilan samarali kurashishni imkoniyati yo'q edi. Hozir esa vaziyat o'zgarib boshladi. Informatika, axborotni himoya qilish va davlat sirlari sohasida bevosita qonunchilik asoslari 10 dan ortiq asosiy qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentini bir qator farmoyishlarida aks ettirilgandir.

Asosiy qonunlarda axborotni va axborotli resurslarni maqsadlari, ob'ektlari tushunchalari va huquqiy asoslari aniqlangandir.

«Axborot, axborotlashtirish va axborotni himoya qilish to'g'risida» gi qonun fuqarolarni axborotga konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash, uni ochiqligini va unga murojaat qilishlikni, fuqarolar va tashkilotlar tomonidan qonunchilik, ijroiya va sud xokimiyati organlari to'g'risidagi axborotni va boshqa axborotni olishni, jamoat va shaxsiy manfaatga ega bo'lgan ta'minlashga, hamda jamiyatda axborot bilan mulokot qilishga va axborotlashtirishni rivojlantirishga ko'maklashish uchun da'vat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

Kitoblar

1. ISO/IEC 27005:2018. Information Technology—Security Techniques—Information Security Risk Management; ISO Standard: Geneva, Switzerland, 2018.
2. Kuzminykh, I.; Carlsson, A. Analysis of Assets for Threat Risk Model in Avatar-Oriented IoT Architecture. In Internet of Things, Smart Spaces, and Next Generation Networks and Systems; Galinina, O., Andreev, S., Balandin, S., Koucheryavy, Y., Eds.; Springer: Cham, Switzerland, 2018; Volume 11118, pp. 52–63.

Veb sayt

<https://cyberleninka.ru/article/n/axborot-xavfsizligi-xavfini-baholash/viewer>

